

Mustafaqulov Asatulla Asrorovich

Jizzax politexnika instituti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ashirboev Nurgali Qudayarovich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Muxtar Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti

Qozog'iston Respublikasi, Shimkent shahri

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TA'LIM

MUASSASALARINI BOSHQARISH

Annotatsiya: ushbu maqola yildan-yilga sifatli ta'lim olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ta'lim oluvchilarning o'qish ehtiyojlari kengayib borishi, yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishidan kelib chiqqan xolda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: Ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy tendensiyalar;

Mustafaqulov Asatulla Asrorovich

Jizzakh polytechnic institute

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Ashirbaev Nurgali Kudayarovich

Doctor of Phys.-Math. sciences, professor

South Kazakhstan State University named after Mukhtar Auezov,

Republic of Kazakhstan, Shymkent

MANAGEMENT OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON

INNOVATIVE APPROACHES

Abstract: There are enlightened some issues of increasing of management in the sphere of higher educational institutions and improving of preparation of compete able personal as educates of different spheres are increasing and widening of study demand by appearing of new specialists.

Key words: *Quality of education, management quality of education, modern tendencies;*

Jahondagi yetakchi davlatlar innovatsion indeksiga (Global Innovation Index, GII) asosan fan va texnika yutuqlari orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, moddiy sohadagi mahsulotlar ishlab chiqarishda progressiv o'zgarishlarni ta'minlash, milliy mahsulotni jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish kadrlar muammosi bilan bog'liqdir. Oliy ta'limda muassasalarida ilmiy-texnologik, amaliy va psixologik-pedagogik tayyorgarliklar asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayoniga doimiy ravishda istiqbolli ta'lim texnologiyalarni tatbiq etish va talabalarning innovatsion faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish alohida e'tirof etiladi [5].

Xalqaro ilg'or tajribalarga ko'ra, ABET (AQSh), ECUK (Buyuk Britaniya), CCPE (Kanada), IEAust (Avstraliya) va JABEE (Yaponiya) kabi innovatsion intellektual markazlar hamda bir qator nufuzli universitetlarda ta'lim sifati innovatsion yondashuvlar orqali doimiy yangilanib borilishi va ta'lim jarayoniga zamonaviy metodlarni tatbiq etish orqali bo'lajak kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda yangi sifat darajalariga erishish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida sifat, ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqatishda innovatsion yondashuvlar asosida amaliyotga tatbiq etish muhim o'rin egallaydi [2].

Mamlakatimizda zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni maqsadli amalga oshirish borasida salmoqli ishlarni olib borildi. Jumladan, "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" hamda Innovatsion rivojlanish agintligining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan ta'lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta'minlash kabi belgilangan ustuvor vazifalari oliy ta'lim tizimida

raqobatbardosh kadrlarni innovatsion faoliyatiga tayyorlash zaruriyatini taqozo etmoqda [1].

So'ngi yillarda mamlakatimizdagi OTMlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion salohiyatidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha bir qator qadamlar qo'yildi.

Bu ayniqsa, ilmiy universitetlarni tashkil etish va universitetlararo laboratoriyalarni ochish, universitetlar negizida yaratilgan kichik innovatsion ijodiy guruhlarini qo'llab-quvvatlash, yuqori texnologiyalarni rivojlantirish va yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan OTM o'rtasidagi hamkorlikning yangi shakllarini joriy etish, yuqori malakali mutaxassislar fan va oliy kasbiy ta'lim sohasida ishlashlari mumkinligida yaqqol ko'rinmoqda.

Shunga qaramay, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda o'zbek OTMning ilmiy tadqiqot salohiyatini jalb qilish darajasi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu holat Oliy ta'limning innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish muammolarini to'liq hal eta olmayapti.

Ko'pgina modellarga e'tibor beradigan bo'lsak, ba'zi innovatsion tizimda qisman, ba'zilarida esa to'liq davlatning o'rni borligini ko'rishimiz mumkin. Umumlashtirib aytishimiz mumkinki, mamlakatlarning fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion rivojlanishiga o'tishida bepul ta'lim (Germaniya), ilm-fanga qilingan yuqori xarajatlar (Germaniya, Finlyandiya) kabi dastlabki shartlar muhim ahamiyatga ega. Bosqichma-bosqich olib borilgan iqtisodiy siyosat ham mamlakat ichki va tashki imkoniyatlariga ko'ra amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanligini yaqqol ko'rish mumkin.

Yuqoridagi muammoni muvaffaqiyatli hal etish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagilarni amalga oshirish kerak:

Davlat darajasida:

-ommaviy axborot vositalarida innovatsion tushunchalar va yondashuvlarning ahamiyatini oshirish, jamiyatni innovatsion rivojlantirishning ustuvorligi;

-kapitalining mavjudligi;

-innovatsiyalarga ijobiy munosabatda bo'lishni rag'batlantirish, ularning avlodlari, his-tuyg'usi va amalga oshirishni nuqtai nazaridan zamonaviy va dolzarb hayotning zamonaviy uslubini qo'llab quvvatlash;

Universitet darajasida:

-eng so'nggi imiy va texnik adabiyotlar, ma'lumotlar bazasi, internet maydonlarga keng yo'l ochish;

- axborot resurs markazlarini, texnoparklarni va boshqalarni universitetlar negizida ishlab chiqish;

-barcha OTMlarni zamonaviy jihozlar, laboratoriya va asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

-ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni istaganlar uchun ilmiy-texnikaviy maslahat resurslarini shakllantirish;

-ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha ma'lumotlar banklarini yaratish va ularning doimiy yangilab borilishini ta'minlash;

-OTMda ixtisoslashtirilgan patent va marketing bo'limlarini tashkil etish;

-amaliyotga tadbqiq etish, shu jumladan, o'z biznesini tashkil qilish, yuritish va boshqarish bo'yicha yetakchi mutaxassislar va tegishli filiallardan mutaxassislarni taklif qilish orqali o'quv jarayonida ishtirok etish;

-innovatsion izlanishlar tashabbuslari va faoliyati uchun moddiy rag'batlantiruvchi mablag'lar fondini yaratish;

Professor-o'qituvchilar tarkibi uchun:

-mahalliy va xorijiy ilmiy-ishlab chiqarish stajirovkalarini tashkil etish va muntazam o'tib borish;

-ilmiy-axborot va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, simpozium va shu kabilarga jalb qilish; -talabalar va katta ilmiy xodimlar, talabgorlar ishtirokida o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion usullarini va amaliy xarakterdagi innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni moddiy jihatdan rag'batlantirish;

Ilmiy xodimlar uchun:

-ilmiy-amaliy va ilmiy-innovatsion vazifalarni hal etishda ilmiy tadqiqotchilarni jalb qilish, ularni haqiqiy innovatsion loyihalarga kiritish;

-dissertatsiya tadqiqotlari mavzusini muayyan ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-innovatsion muammolarni hal qilish uchun maksimal darajada bog'lash;

-ilmiy-o'quv markaz faoliyatini amalga oshirishda tadqiqotchilarni jalb qilish orqali universitetlar, alohida kafedralar bazasida, shuningdek, grant loyihalarini amalga oshiriladigan iqtisodiyotning real sektori bilan birgalikdagi dastur va loyihalarni amalga oshirish;

-amaliy xarakterdagi innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ularning ishtirokini moddiy jihatdan rag'batlantirish va yo'naltirish. [3].

Jahon tajribasiga suyanan holda aytishimiz mumkinki, kichik innovatsion korxonalarni ham, yirik kompaniyalarni qo'llab quvvatlanishi orqali ham ijobiy natijalarga erishi mumkin. Ular o'zaro bir-birini to'ldirgan holda jipslikda faoliyat yuritish maqsadga muvofiqdir. Jahon tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, dunyoda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasining uzviyligini ta'minlash va barpo etishni yagona modeli mavjud emas. Bir necha yuz yillar davomida tovar-pul munosabatlarini boshidan kechirgan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham innovatsion iqtisodiyotga o'tish masalasi o'z-o'zidan qisqa vaqtda amalga oshirilmagan [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni.
2. Usmonov B. Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini klasterli yondashuvlar asosida innovatsion rivojlantirish: Avtoref. diss. p.f.d 13.00.07/ Toshkent, 2020 yil
3. Isroilov B.I. Ta'lim tizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, 2016 y.

4. Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish hamkorligidagi innovatsiyalar vorisiylik sifatida. Zamonaviy ta'lim. 2015y. №10, 12-19 b.
5. <https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2024/en/>